

AYOL-QIZLAR UCHUN GRANT VA STIPENDIYA DASTURLARINING
SAMARADORLIGI

Kamolova Sarvinoz O'rol qizi

Alfraganus universiteti "Xalqaro munosabatlar"

yo'nalishi, 3-kurs talabasi

e-mail: kamolovasarvinoz1@gmail.com

Ilmiy rahbar: Muxamedov Asror Asadovich

Falsafa bo'yicha falsafa doktori, dotsent

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola ayol-qizlar uchun mo'ljallangan grant va stipendiya dasturlarining ta'limga, ijtimoiy va iqtisodiy natijalarga ta'sirini tahlil qiladi. Maqola global adabiyotlarni va mamlakatlar misollarini — xususan O'zbekiston yangiliklari va xalqaro tajribalarni — o'zaro solishtiradi. Tadqiqot grant va stipendiyalarning qizlarning maktabga qatnashi, o'qishda davomiyligi, oliy ta'limga kirish, kasbiy yo'nalishlar (jumladan STEM), va uzoq muddatli iqtisodiy natijalarga bo'lgan ijobiy va salbiy ta'sirlarini ko'rsatadi. Mahalliy siyosat va xalqaro dasturlar samaradorligini oshirish uchun amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: ayol-qizlar, stipendiya, grant, ta'lim siyosati, gender tengligi, samaradorlik, olim ayollar granti.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ГРАНТОВЫХ И СТИПЕНДИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ
ДЛЯ ЖЕНЩИН

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируется влияние грантов и стипендий на образовательные, социальные и экономические результаты для женщин и девочек. В статье сравниваются данные мировой литературы и страновых исследований, в частности, результаты исследований, проведенных в Узбекистане, а также международный опыт. Исследование демонстрирует положительное и отрицательное влияние грантов и стипендий на посещаемость школ девочками, их отсев, поступление в высшие учебные заведения, карьерный рост (включая STEM) и долгосрочные экономические результаты. Даны практические рекомендации по повышению эффективности внутренней политики и международных программ.

Ключевые слова: женщины и девочки, стипендия, грант, образовательная политика, гендерное равенство, эффективность, грант для женщин-ученых.

EFFECTIVENESS OF GRANT AND SCHOLARSHIP PROGRAMS FOR WOMEN

ABSTRACT: *This article analyzes the impact of grants and scholarships for women and girls on educational, social, and economic outcomes. The article compares global literature and country case studies—particularly Uzbekistan's own findings and international experiences. The study demonstrates the positive and negative effects of grants and scholarships on girls' school attendance, retention, higher education entry, career paths (including STEM), and long-term economic outcomes. Practical recommendations are provided to improve the effectiveness of domestic policies and international programs.*

Key words: *women and girls, scholarship, grant, education policy, gender equality, effectiveness, women scholars grant.*

KIRISH

Ayollarning ta'lim olishi barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Grant va stipendiya dasturlari moliyaviy to'siqlarni kamaytirish orqali, ayniqsa kam ta'minlangan oilalardan chiqqan qizlar uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq, dasturlarning haqiqiy samarasi faqat moliyaviy yordamdan iborat emas — ular ijtimoiy stereotiplar, madaniy to'siqlar, sifatli ta'lim hamda ishga joylashish imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, samaradorlikni baholashda ko'plab o'lchovlar va kontekstual faktorlarga e'tibor qaratish zarur. O'zbekiston kontekstida so'nggi yillarda ayollar uchun yo'naltirilgan stipendiya va grant tashabbuslari kengaydi — davlat darajasidagi qarorlar ham chiqarilmoqda, bu esa siyosat samaradorligini o'rganishni dolzarb qiladi. [1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak" degan so'zlari "Beshikdan qabrgacha ilm izla" degan ulug' hadis iborasiga hamohangligi, nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimli, yuqori saviyali, ilm-ma'rifatli va yuksak ma'naviyatga ega bo'lishi oldimizda turgan eng ustuvor vazifalardan biridir.

Prezident farmoyishiga ko'ra, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi quyidagilar bo'yicha takliflarni Davlat komissiyasiga taqdim etadi:

- ❖ respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari hamda nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga ajratilgan 1 320 ta davlat grantining taqsimoti yuzasidan;

- ❖ davlat oliy ta'lim tashkilotlarida o'qish istagini bildirgan, xorijda istiqomat qilayotgan yosh vatandoshlar uchun 30 ta davlat grantining ta'lim yo'nalishlari kesimidagi taqsimoti bo'yicha;

- ❖ Oila va xotin-qizlar qo'mitasi bilan birgalikda xotin-qizlar uchun ajratilgan 4 000 ta davlat grantining taqsimoti yuzasidan;

❖ davlat buyurtmasining taqsimotida ishtirok etish istagini bildirgan hamda talabalar qabulini davlat oliy ta'lim tashkilotlari uchun belgilangan tartib va shartlarda amalga oshiruvchi nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari ro'yxatini;

❖ davlat buyurtmasining taqsimotida ishtirok etuvchi oliy ta'lim tashkilotlarining takliflariga asosan 2025/2026-o'quv yili uchun oliy ta'lim tashkilotlari, ta'lim shakllari va ta'lim tillari kesimidagi umumiy qabul parametrlari bo'yicha takliflarni. [4]

Bugun jamiyatimizning ilmiy-texnikaviy faoliyatida xotin-qizlar faol ishtirok etmoqda. Olima ayollar tomonidan ilm-fan sohasidagi izlanishlar ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy sohalarining rivojiga salmoqli hissa bo'lmoqda. 2018 yildan beri o'tkazib kelinayotgan "O'zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi" tanlovida ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish maqsadida talaba va o'quvchi qizlar, dasturchi va tadbirkor ayollar ishtirok etib keladi. "Olima ayollar grantlari" tanlovi xotin-qizlarni ilm-fan sohasida qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga xizmat qiladi. Xususan, 2020 yilda tanlov doirasida Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy - amaliy akusherlik va ginekologiya tibbiyot markazining homilador ayolda endotelial tizimining ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda homila yo'qotish sindromini rivojlanish xavfini erta tashxislashni ishlab chiqishga qaratilgan innovatsion loyihasiga yillik 899,9 million so'm miqdorida mablag' ajratilishi tasdiqlangan.

Mamlakatimiz ilm-fani va ma'naviyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan, milliy tarixda o'zining noyob iqtidori bilan nom qoldirgan, yuksak intellektual salohiyat va keng dunyoqarashga ega yuzlab ayollar nomini keltirish mumkin. Oqqan daryo oqaveradi. Ilm-fan va tafakkur karvoni o'z yo'lida davom etadi, ustoz-shogird an'analari, avlodlar uzviyligi ta'minlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekistonda xotin-qizlar oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi imkoniyatlari yanada kengayadi. Bu haqda o'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan marosimda mamlakat prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytib o'tdi. "Buyuk davlat arbobi Indra Gandining "Bitta qizni o'qitsangiz, butun oilani o'qitgan bo'lasiz", degan so'zlarini, albatta, hammamiz yaxshi tushunamiz. Shuning uchun joriy yilda qishloq joylarda yashayotgan kam ta'minlangan oilalarga mansub qizlarimiz oliy o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limida davlat granti asosida o'qishlari uchun 940ta o'rin ajratdik.

O'ylaymanki, qizlarimiz uchun yaratilgan bunday qo'shimcha imkoniyat yana yuzlab oilalarga bilim, ma'rifat nurini olib kiradi. Bu esa o'z navbatida yosh qizlarimizning kelajakda jamiyat uchun munosib kasb egalari bo'lib kamol topishiga puxta zamin yaratadi.

Biz bu boradagi ishlarimiz ko'lamini bundan keyin ham yanada ko'paytirib boramiz. Bu bizning birinchi tajribamiz. Albatta, joylardagi xotin-qizlar qo'mitalari, jamoatchilik tavsiyasi asosida ushbu harakatni amalga oshirdik. Agarda bu yo'nalishda haqiqat, adolat tamoyillari ishlasa, grantlar sonini 2-3 baravar oshirishga tayyormiz», dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yana shuni ta'kidlash joizki, Alfraganus universiteti homiyligida o'tkazilayotgan "Gravitatsion idrok" loyihasi o'zining eng muhim pallasiga yetdi. Loyihada g'olib bo'lgan 5 nafar ishtirokchi, Toshkent shahridagi Alfraganus universitetida 4 yil davomida grant asosida tahsil oladi, hamda 1-o'rinni egallagan ishtirokchiga "Tracker" avtomobili sovg'a qilinadi degan qarori chiqqan edi va shunda ham ko'rib turibmizki 2025 yil 5-oktyabr sanasida ushbu avtomobil o'z egasiga yani ta'laba qizga topshirildi. Bu ham rahbarlarimiz tomonidan ayoll-qizlarimizga bo'lgan e'tibori namunasidir.

Xotin-qizlar uchun qo'shimcha 2000 ta davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari:

Xotin-qizlar uchun qo'shimcha qabul ko'rsatkichlarining hududlar kesimidagi taqsimoti tasdiqlandi. Jarayon haqida asosiy ma'lumotlar

Xotin-qizlar uchun qo'shimcha 2000 ta davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlarining hududlar kesimidagi taqsimoti tasdiqlandi.

Unga ko'ra:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi – 111;
2. Andijon viloyati – 183;
3. Buxoro viloyati – 112;
4. Jizzax viloyati – 81;
5. Qashqadaryo viloyati – 193;
6. Navoiy viloyati – 60;
7. Namangan viloyati – 165;
8. Samarqand viloyati – 227;
9. Surxondaryo viloyati – 155;
10. Sirdaryo viloyati – 50;
11. Toshkent viloyati – 177;
12. Farg'ona viloyati – 221;
13. Xorazm viloyati – 110;
14. Toshkent shahri – 155.

O'tgan yillardagi kabi 3 ta sohaga alohida kvota ajratilgan:

Aniq va tabiiy fanlar

Texnika fanlari

Tibbiyot fanlari

Mana shu uchta sohadan ortib qolgan kvotalar esa, umumiy boshqa barcha sohalar uchun bo'ladi. [3]

O'zbekistonda so'nggi yillarda ayollarga yo'naltirilgan stipendiya va grant tashabbuslari kuchaygan. Misol uchun, 2025 yil bahorida davlat tomonidan kam ta'minlangan oilalardan chiqqan yuqori natijali qizlar uchun maxsus stipendiya dasturi joriy etilgani haqidagi xabarlar mavjud. Bunday davlat tashabbuslari qizlarning oliy ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytirishi kutiladi, ammo samaradorlikni baholash uchun aniq monitoring va baholash mexanizmlari, shaffof tanlov mezonlari va uzoq muddatli kuzatuvlar muhimdir.

XULOSA

O'zbek nomini, o'zbek ilm-fani va madaniyatini, bir so'z bilan aytganda, xalqimiz yuksak salohiyatini, uning qanday buyuk ishlarga qodir ekanligini butun dunyoga namoyish qilish albatta biz yoshlarning qo'lida. Shunday ekan, yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotni asrash, uning mustaqilligi va barqarorligiga munosib hissamizni qo'shish – har birimizning, shu aziz Vatanda yashayotgan barcha yoshlarning, eng asosiy vazifalaridan bo'lib qolmog'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Yangi O'zbekistonda ayollarning ilm-fan taraqqiyoti va innovatsion rivojlanish jarayonidagi o'rni” mavzusidagi respublika respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari
2. <https://kun.uz/35687818>
3. <https://imtixonlar.uz/post/xotin-qizlar-uchun-qoshimcha-2000-ta-davlat-granti-asosidagi-qabul-korsatkichlari-tasdiqlandi>
4. Normayeva_Mashhura_Gulomovna_552-561.pdf